

### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Ortiqova Yulduz Akram qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti*

*Shahrisabz, O'zbekiston*

*e-mail: [ortiqovayulduz2@gmail.com](mailto:ortiqovayulduz2@gmail.com)*

*Tel: + 998 91 633 26 22*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning savodxonligini oshirishda ta'limiy o'yinlarning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida ta'limiy o'yinlarning bolalarning intellektual, mantiqiy va til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar va tushunchalar :** Savodxonlik, maktabgacha ta'lim, ta'limiy o'yinlar, bolalar rivojlanishi, o'quv jarayoni.

**Абстрактный:** В данной статье рассматривается роль образовательных игр в повышении грамотности детей дошкольного возраста. В ходе исследования анализируется значение образовательных игр в развитии интеллектуальных, логических и языковых навыков детей.

**Ключевые слова и понятия:** На русском языке: грамотность, дошкольное образование, образовательные игры, развитие детей, учебный процесс.

**Abstract:** This article examines the role of educational games in enhancing literacy among preschool-aged children. The study analyzes the importance of educational games in developing children's intellectual, logical, and language skills.

**Keywords and concepts :** literacy, preschool education, educational games, child development, learning process.

Ta'lim tizimining ibtidosi bo'lmish maktabgacha ta'lim bosqichida tarbiyalanuvchilarning yetakchi faoliyati o'yin sanalsa-da, ushbu jarayon zamirida ta'lim va tarbiya berish, borliqni anglatish, mustaqil fikr yuritishga undash orqali shaxsni shakllantirish ko'zda tutiladi.[1] Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida deyarli barcha jarayon – ta'lim ham, tarbiya ham o'yin shaklida amalga oshirilishi "Ilk qadam" dasturida alohida ta'kidlangan.[2]

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va metodikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda ta'kidlanishicha o'yinlar bu yoshdagi bolalarning asosiy ilk faoliyatlaridan bo'lib, ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.[3] Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan didaktik o'yinlar tarbiyalanuvchilarda bir qator shaxsiy sifatlar tarkib topishining asosidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog- kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab tizimiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya jarayoning asosiy shakli hisoblanadi. U boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda mavzu mohiyatini singdirishning samarali vositasida qo'llaniladi. O'yin bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga suhbatga kirishish, nutqini shakllantirish, suhbat uchun mavzu tanlash layoqati rivojlanadi. O'yin zavqlanish, qiziqarli vaqt o'tkazish uchun ketma-ketlikda amalga oshiriladigan harakatlardir. Disterveg Adolf

aytganidek, o‘yin orqali bolalarga “haqiqatni topish o‘rgatiladi”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin faoliyati mazmun jihatdan har kuni o‘zgarib turadi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlarini o‘yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O‘yin turlari ichida didaktik o‘yinlar bolalar nutqini rivojlantirishga katta e‘tibor beradi.

Didaktika – yunoncha “didacticos” – o‘qitish, o‘rgatish degan ma‘noni anglatadi. Didaktik o‘yinlarning muhim elementi qoidalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o‘yin mazmunini amalga oshirishni ta‘minlaydi. Didaktik o‘yin – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta‘lim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o‘yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo‘rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o‘yinni amalga oshirishda har doim g‘oyaviylik prinsipiga asoslanish kerak. Didaktik o‘yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim.

Didaktik o‘yinlar bolalarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini bilan uyg‘unlashtira olishi, bir-biriga ko‘maklashish va o‘rtog‘ining muvaffaqiyatidan hursand bo‘lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkibi topishiga yordam beradi. O‘yinlar shaxsning sofdillik, rostgo‘ylik kabi ijobiy hislatlar shakllanishiga imkon beradi. Mamlakatimizdagi eng taniqli o‘qituvchi A.S. Makarenko bolalar o‘yinlarining roli shu tarzda tavsifladi: “O‘yin bola hayotida muhim ahamiyatga ega, shuningdek, kattalarning faoliyati, ishi, xizmati nimada muhim ahamiyatga ega. Bola nima o‘ynaydi, demak u ko‘p jihatdan u ishda bo‘ladi. Shuning uchun bo‘ljak aktyorni tarbiyalash birinchi navbatda o‘yinda sodir bo‘ladi”.

Didaktik o‘yinlarni tashkil etish usullari. O‘qituvchi tomonidan didaktik o‘yinlarni tashkil etish uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi: didaktik o‘yinlarga tayyorgarlik, uni o‘tkazish, va tahlil qilish. Didaktik o‘yinga tayyorgarlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ta‘lim va mashg‘ulot vazifalariga muvofiq o‘yinni tanlash: bilimlarni chuqurlashtirish va umumlashtirish, aqliy jarayonlarni faollashtirish (xotira, e‘tibor, fikrlash, nutq) va h.k;

o‘yin uchun eng qulay joy tanlash;

o‘yin uchun qulay vaqtni aniqlash;

o‘yinchilar sonini aniqlash (butun guruh, kichik guruh, katta guruh);

tanlangan o‘yin uchun zarur bo‘lgan materiallarni tayyorlash (o‘yinchoqlar, turli xil narsalar, rasmlar);

o‘qituvchining o‘yiniga tayyorgarlik: u o‘yinning barcha yo‘nalishlari, o‘yindagi o‘rnini, o‘yinni boshqarish usullarini o‘rganishi va tushunishi kerak;

bolalar o‘yiniga tayyorgarlik: ularning o‘yin muammosini hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, hayot obyektlari va hodisalar haqidagi g‘oyalar bilan boyitish.

Bolalar dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ularda mustaqil fikrlash layoqatini takomillashtirishga omil bo‘ladigan didaktik o‘yinlardan boshqa biri “Bayram dasturxonini” deb nomlanadi. Mazkur o‘yin mashg‘uloti jihozlari sifatida o‘rmondagi hayvonlar, ularning uylari va yeydigan ovqatlari tasviri tushirilgan kartochkalar bo‘ladi. Tarbiyachi bugun bayram munosabati bilan quyon o‘rmondagi hayvonlarni ziyofatga chaqirganligini, bir qancha taomlar tayyorlaganini aytadi va bolalarga har xil oziq-ovqatlar rasmini havola etadi. Keyin bolalarga murojaat qiladi. “Bolajonlar, shu taomlarga qarab topinglarchi, quyon ziyofatga kimlarni taklif qilibdi?”. Bolalar rasmlarda aks etgan idishdagi asal, taqsimchadagi yong‘oq, ko‘zachadagi sut, ixcham bog‘langan pichan va h.k taomlarga asoslangan holda ularni iste‘mol qiladigan hayvonlarning suratini yopishtiradi va so‘raydi.

“O‘ylab boqingchi, quyon qaysi hayvonlarni mehmonga chaqirmabdi? Nima sababdan chaqirmabdi ekan?” Bolalar mulohaza qilib, quyon bo‘ri bilan tulkini mehmonga chaqirmaganini aytadilar. Chaqirmaganligining sababini o‘zlari bilganicha izohlaydilar. So‘ngra tarbiyachi

hikoyani davom ettirib: “Mehmonga kelgan hayvonlar ziyofatda yayrab ovqatlanishibdi, suhbatlashibdi va kechga yaqin uylariga qaytishibdi” va o‘yindagi keyingi topshiriqqa o‘tadi. Taxtaga har xil uyalarning suratini yopishtirib, quyidagi topshiriqni beradi: “Mehmondan qaytgan hayvonlarning suratini o‘z uyasi oldiga qo‘yinglar”. Birin-ketin chiqqan bolalar maymoq ayiqni kattagina uyasiga, olmaxonni daraxtga, qushlarni daraxt - shohlariga, quyonni butalar ostiga joylashtiradi, so‘ngra yana hikoya quyidagicha davom ettiriladi: “Ertalab turib barcha hayvonlar quyon tashkil qilgan mehmondorchilik qanday o‘tganini so‘zlab berishibdi”.

Tarbiyachi shu o‘rinda bolalarga savol bilan murojaat qiladi: “Bir o‘ylab ko‘ringlarchi, qaysi hayvon qanday hayvonlarga quyonning ziyofati haqida gapirib beribdi?” va ishtirok etgan hayvonlarning bolalari aks etgan suratlarini chiqaradi. Endi bolalar suratdagi hayvon bolalarining nomini aytib, ular o‘z onalari oldiga yopishtirib qo‘yadilar. Shu tariqa baholash bosqichiga yetib kelinadi: to‘g‘ri qo‘yilgan javoblar oldiga tarbiyachi har xil baholarni aks ettiruvchi belgilarni yopishtirib chiqadi. Masalan, to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yoniga yulduzcha yoki smayliklar qo‘yib borish mumkin. Bu didaktik o‘yinlar vositasida bolalar ham bilim oladilar, ham mustaqil mulohaza yuritib kashfiyotlar qiladilar. Ana endi sizga didaktik o‘yinlardan qisqacha misollarni e‘tiboringizga havola qilamiz ;

### MISOLLAR

1. "Alifbo poygasi": Har bir bola bir harf bilan boshlanadigan narsani topishi kerak. Masalan, "A" harfi uchun anor, "B" harfi uchun banan. Bu o‘yin nafaqat savodxonlikni, balki bolaning xotira va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.
2. "Rangli harflar": Rangli harf kartalari bo‘yicha so‘zlar tuzish va o‘yin davomida o‘sha narsalarni topib kelish (masalan, "uy" so‘zini tuzib, uyning rasmini ko‘rsatish).
3. "Harflar ovchisi": Bolalar kitoblarda yoki jurnal rasmlarida berilgan harflarni topishi va ular bilan so‘z tuzishi kerak. Masalan, "B" harfini topib, "bola" so‘zini shakllantirish.
4. "Tovush topish o‘yini": Biror tovush aytiladi, bola shu tovushdan boshlanuvchi so‘zlarni aytishi kerak. Masalan, "T" tovushi uchun "tugma", "to‘p".

### ”Sabzovotlar va mevalar” o‘yini

**Rivojlantiruvchi maqsad:** “Sabzovotlar va mevalar” didaktik o‘yini orqali bolalarda sabzavotlar (sabzi, kartoshka, piyoz, karam, pomidor, bodring, baqlajon, sholg‘om, turp, lavlagi, bulg‘or qalampiri – bular sabzavotlar), mevalar (olma, gilos, o‘rik, uzum, anor, shaftoli, anjir, behi, nok, olxo‘ri, xurmo, yong‘oq – bular mevalar), sitrus mevalar (limon, apelsin, mandarin, banan)ni umumlashtirishga o‘rgatiladi, ularni shakli, rangi, hajmi, ta‘mi, iste‘mol qilinishiga qarab qiyoslash va xarakterlay olish ko‘nikmasini shakllantiriladi, umumlashtirilgan (sabzavotlar, mevalar, gullar) so‘zlarni nutqda qo‘llashga o‘rgatiladi. lug‘at boyligini boyitish.

**Ta‘limiy maqsad:** bolalarning sabzavotlar va mevalar haqidagi bilimlarini boyitish.

**Tarbiyaviy maqsad:** sabzavotlar va mevalarning sog‘liq uchun foydasi haqidagi bilimlarini boyitish.

Jihozlar: sabzavotlar va mevalar tasvirlangan rasmi kartochkalar, savatchalar.

**O‘yinning borishi:** bunda bolaga sabzavotlar va mevalarni o‘ziga tegishli savatchaga solishni o‘rgatiladi, ularni shakli, rangi, hajmi, ta‘mi, iste‘mol qilinishiga qarab qiyoslab aytib berishlari kerak bo‘ladi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

Didaktik o‘yinni ertalabki davrada, kunning 2-yarmida erkin faoliyat vaqtida, ta‘limiy faoliyat jarayonida olingan bilimni mustahkamlash maqsadida ham, sayrda musobaqa o‘yin usulida ham foydalanish mumkin.

Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi.

Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi. (4)

Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta'limiy o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

**Ta'limiy o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:**

- 1.Navbatma-navbat ta'sir etish.
- 2.So'ralganda javob berish.
- 3.O'rtoqlari fikrini eshita olish.
- 4.O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
- 5.O'yin qoidasini bajarish.
- 6.O'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar — bolalarning tilga oid o'yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur. Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya'ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarni savodini chiqarish buyicha ta'limiy o'yinlarning o'rni nihoyatda katta. Chunki didaktik o'yinlardan bolalar nafaqat til ko'nikmasini rivojlantirishi bilan bir qatorda o'z fikrini erkin bayon eta olishi, turli xil so'z o'yinlarida jamoa bo'lib birga ishtirok etishi, rasmlarga qarab hikoyalar tuzishi, harflarga oid o'yinlar orqali tezda savodini chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa shubhasiz maktab ta'limiga tayyorligini yaqqol isboti ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.1. I.Oxunov. Didaktik o'yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishdagi metodik imkoniyatlari. – Til va adabiyot ta'limi, 2020-yil. 11-son.
2. I.Oxunov. Ta'lim va o'yin uyg'unligi orqali nutqni mustahkamlash. – Til va adabiyot ta'limi, 2020-yil 11-son.
3. Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. –T.: 2016y.
4. N.Sh.Abdullayeva, G.M.Nazirova ." Rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta'minlash o'quv qo'llanma" . 81- bet.

### **Internet saytlari:**

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.ziyanet.uz](http://www.ziyanet.uz)